

GAVHARSHODBEGIMNING TEMURIYLAR DAVLATIDAGI SIYOSIY O‘RNI VA TA’SIRI

Umarova Musharraf Yunusaliyevna

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, assistenti Farg‘ona Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar sulolasi davrida Gavharshodbegimning davlat boshqaruvidagi roli, uning diplomatik faoliyati hamda siyosiy ta’siri ilmiy manbalar va tarixiy hujjatlar asosida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda Gavharshodbegimning siyosiy qarorlardagi faolligi, poytaxt va markaziy hokimiyatni boshqarishdagi hissasi, shuningdek, saroy hayoti va valiahdlilik masalalaridagi ta’siri o‘rganiladi. Maqola Gavharshodbegimning nafaqat siyosiy faoliyatini, balki madaniyat va ilm-fan sohalaridagi homiylik faoliyatini ham yoritib beradi, bu esa uning Temuriylar davlatidagi o‘rni va ahamiyatini to‘liq anglashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, maqola o‘rta asr Sharqidagi ayollarning siyosiy va diplomatik hayotdagi rolini tahlil qilish uchun ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Shohrux Mirzo, Gavharshodbegim, Xuroson, Samarqand, Hirot, siyosiy faoliyat, davlat boshqaruvi.

GAVHARSHODBEGIM'S POLITICAL ROLE AND INFLUENCE IN THE TIMURID STATE

Umarova Musharraf Yunusaliyevna

Fergana Public Health Medical Institute, Assistant, Fergana, Uzbekistan

Abstract: This article provides an in-depth analysis of Gavharshodbegim's role in state governance, her diplomatic activities, and political influence during the Timurid dynasty, based on scholarly sources and historical documents. The study examines her active participation in political decision-making, her contribution to managing the capital and central authority, as well as her influence within the royal court and matters of succession. The article highlights not only her political activities but also her patronage in culture and science, offering a

comprehensive understanding of her position and significance within the Timurid state. Additionally, the study serves as a scholarly reference for analyzing the role of women in political and diplomatic life in the medieval Eastern world.

Keywords: Amir Temur, Shohrukh Mirzo, Gavharshodbegim, Khorasan, Samarkand, Herat, political activity, state governance.

Kirish

Temuriylar sulolasi (XIV–XV asrlar) Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy qudrati bilan, balki madaniyat, ilm-fan va san'atning rivojlanishi bilan ham ajralib turadi. Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan davlat qisqa vaqt ichida Sharqning eng qudratli saltanatlaridan biriga aylangan. Uning avlodlari, xususan Shohrukh Mirzo davrida siyosiy barqarorlik va madaniy uygʻonish yanada keng koʻlamda rivojlangan. Bu jarayonda saroy malikalarining roli, ayniqsa Shohrukh Mirzoning rafiqasi Gavharshodbegimning faoliyati beqiyosdir. U siyosiy donoligi, diplomatik mahorati va madaniyat homiysi sifatidagi ishlari bilan oʻrta asr Sharq ayollari tarixida alohida oʻrin egallaydi. Gavharshodbegim davlat ishlarida faol ishtirok etib, markaziy hokimiyatni mustahkamlash, diplomatik aloqalarni rivojlantirish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim rol oʻynagan.

Dolzarbligi

Gavharshodbegimning Temuriylar davridagi siyosiy va diplomatik faoliyati oʻrta asr Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi va saroy hayotini chuqur tushunish uchun muhimdir. U ayollarning siyosiy hayotdagi faol ishtirokini koʻrsatadi va tarixiy gender tadqiqotlariga ham hissa qoʻshadi.

Maqsad

Maqola Gavharshodbegimning davlat boshqaruvidagi roli, valiahdlilik va diplomatik masalalardagi taʼsiri hamda madaniyat va ilm-fan sohalaridagi homiyligini oʻrganib, uning Temuriylar davridagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Asosiy qism

Shohrux Mirzo tabiatan dindor bo'lib, ko'p vaqtini ibodat va kitob o'qishga sarflagan. Shu sababli davlat boshqaruvi va devon ishlarida uning bevosita ishtiroki cheklangan edi. Bu vaziyatda Gavharshodbegim doimiy ravishda siyosiy faoliyat ko'rsatib, saltanat ishlarini boshqarishda muhim rol o'ynagan. U o'zining dono qarorlari, tadbirkorligi, suxandoni va qat'iyatliligi bilan ajralib turgan, shuningdek, go'zallik va ma'naviyat jihatidan ham noyob sifatga ega bo'lgan. Shohrux Mirzo uning maslahatlariga tayanib, davlat ishlarini samarali boshqarishga harakat qilgan.

Gavharshodbegim viloyatlarga hokim tayinlash, qo'shinlarga sarkarda belgilash, in'om va jazolarni belgilash kabi muhim masalalarda faol ishtirok etgan. U Shohrux Mirzoning harbiy yurishlari davomida shahzodalar va harbiy rahbarlarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularni boshqarish va nazorat qilish ishlarida ham faol bo'lgan. Taxtga valiahd tayinlash masalasida ham malika o'z fikrini ilgari surgan, o'z qarorlarini amalga oshirishga harakat qilgan. U o'z o'g'li va nabirasi orasidan taxtga munosib vorisni aniqlashga intilib, davlat barqarorligini saqlashga xizmat qilgan. Shu tarzda Gavharshodbegim markaziy hokimiyatni mustahkamlash va davlat ishlarining samarali yuritilishida asosiy rol o'ynagan.

Mirzo Shohrux uzoq muddatli harbiy yurishga chiqishi sababli poytaxtni tark etganida, markaziy hokimiyatni boshqarish va davlat ishlarini nazorat qilish vazifasini Gavharshodbegimga topshirgan. Bu qadriyatli qaror, ayniqsa, tadbirkor va zukko bu ayolning poytaxtda bo'lishi mamlakat tinchligi va xavfsizligi uchun muhim ekanini ko'rsatadi. Odatda Amir Temur poytaxtni boshqarish uchun ishonchli shahzodani mas'ul qilib tayinlar edi. Bunday sharafiga erishgan shahzodalar qatorida Mirzo Jahongir, Mirzo Umarshayx, Mirzo Muhammad Sulton, Mirzo Shohrux, Mirzo Pirmuhammad va Mirzo Umarlarni sanash mumkin. Shohrux Mirzo poytaxtda Mirzo Muhammad Jo'qiyini qoldirgan bo'lsa ham, tarixchilar bu qaror Gavharshodbegimning xizmatini inobatga olgan holda qabul qilinganini qayd etadi. Shu bilan poytaxt va markaziy hokimiyatni boshqarish "jahon belanchagi" sifatida e'tirof etilgan Gavharshodbegimga yuklatilgan edi.

Shohrux Mirzo Iroq va Ozarbayjon tomon yurishga chiqqanida, Gavharshodbegim Hirotda dorussaltana vazifasini bajarib turgan, shahzoda Muhammad Jo‘qi esa unga mulozimlik qilgan. Iroq va Ozarbayjon hududlari bosib olingach va amir Qaro Yusuf turkmonlar tomonidan mag‘lub etilgach, bu yangiliklar Xuroson va Movarounnahrda yetkazilgan. Shu vaqtda Mirzo Ulug‘bek Gavharshodbegimning xizmatini qadrlab, bir necha kun davomida unga ehtirom bildirib xizmat qilgan. Shahzoda esa Movarounnahrdan Samarqandga kelishi qiyin bo‘lganligi sababli, Gavharshodbegimni poytaxtga yetib kelishini so‘ragan.

Ta’riflangan davrda (16 mart, 1420) Poklik panohi taxtiravon Rabi’ al-avval boshlarida yo‘lga chiqqan, mirzo Muhammad Jo‘qi unga xizmat qilgan. Mirzo Ulug‘bek esa uning yo‘lga chiqishini eshitib, uni kutib olib Buxoro yaqinida uchrashgan va ehtirom bilan oyoq urish marosimini o‘tkazgan. Keyinchalik ular birgalikda dorussaltana Samarqandga yo‘l olgan, 28–29 aprel, 1420 kuni esa shohona to‘y va ziyofat bilan qarshi olingan. Bir necha kun davomida shod-xurramlik va bayramona marosimlar o‘tkazilgach, Mirzo Ulug‘bek sovg‘alar taqdim etgan va keyin Gavharshodbegim Xuroson tomon harakat qilgan. Shu tariqa, markaziy hokimiyatning barqarorligi va poytaxtning xavfsizligi uning yetuk va dono boshqaruvi orqali ta’minlangan.

Xulosa

Gavharshodbegimning faoliyati Temuriylar sulolasi davrida nafaqat siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy hayotga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. U o‘zining dono siyosiy qarorlari, davlat ishlarini boshqarishdagi qat’iyati va diplomatik faoliyati bilan markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shohrux Mirzo uzun muddat yurishlarga chiqqan paytda poytaxtni xavfsiz va barqaror ushlab turish Gavharshodbegimning zimmasiga tushgan bo‘lib, bu uning siyosiy saviyasini va davlat boshqaruvida tutgan o‘rnini aniq ko‘rsatadi. Shuningdek, Gavharshodbegim madaniyat va ilm-fan rivojiga ham katta e’tibor bergan, saroy hayotida san’atni, adabiyot va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlagan. U nafaqat siyosiy masalalarda, balki valiahdlilik va saroydagi tartibni belgilashda ham o‘z fikrini mustahkam himoya

qilgan. Shu orqali u Temuriylar saltanatida barqarorlikni saqlash va ijtimoiy tartibni ta'minlashga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda Gavharshodbeginning nomi tarixiy shaxs sifatida qadrlanish bilan birga, Sharq uyg'onish davrining ma'naviy va madaniy ramzi sifatida ham e'tirof etiladi. Uning siyosiy donoligi, diplomatik mahorati va madaniy merosi nafaqat o'tmish tarixida, balki hozirgi avlodlar uchun ham bebaho ibrat va yo'l-yo'riq manbaidir. Gavharshodbeginning faoliyati o'rta asr Sharqidagi ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini, shuningdek, ularning siyosiy, diplomatik va madaniy ta'sirini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Uning yuksak ma'naviyati va tafakkuri bugungi zamon tarixchilari, tadqiqotchilari va siyosiy yetakchilari uchun ham o'rnak bo'la oladi, shuningdek, Temuriylar davri tarixini chuqurroq anglash va o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Gavharshodbeginning merosi nafaqat tarixiy hujjatlar, balki jamiyat va madaniyat rivojiga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурраззоқ Самарқандий. Матлахус-сахдайн ва мажмах ул-баҳрайн. / Форс тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луғатлар тарих фанлар номзоди А. Ўринбоевники. -Т.: ФАН. 1969. - 463 б.
2. Т. Fayziyev. Temuriylar shajarasi -Toshkent. Yozuvchi 1995.-40-b.
3. Амир Темур жаҳон тарихида.-Т.: Шарқ, 1996. - 295 б.
4. Azamat Ziyo.O'zbek ayollari tarix sahnasida. (Temir Xotin, Kabaj Xotun, Saroy Mulkxonim, Gavharshodbegim).Т.:2002.
5. Ravshanov.P. Amir Temur sulolasi.-Т.; Yangi asr avlodi,2021.-656 b.
- 6.Темур ва Улуғбек даври тарихи. -Т.: Қомус, 1996. - 264 б.